

## Xorijiy maslahatchi ma'ruza qildi

Barcha sohalarda bo'lgani kabi bank tizimi ham mamlakatning moliyaviy va iqtisodiy asosini belgilovchi mezondir. Bugungi kunda uning rivojini xalqaro hamkorliklarsiz, xorijiy tajribalarsiz tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, uning ilmiy va nazariy asoslari hamda amaliy boshqaruvi katta mohiyat kasb etishi tayin. O'zaro tajriba almashishlar har tomonlama manfaatli bo'lishi ham aniq. Bugun ATB Turonbank boshqaruvi raisining xorijiy maslahatchisi Svetlichny Andrey Mixaylovich institutimiz professor o'qituvchilari, tayanch doktorantlari va magistrleri uchun "Bank tizimini rivojlantirishda zamonaviy bilim va texnologiyalar" mavzusida seminar o'tkazdi. Zamonaviy bilim va texnologiya taraqqiyotning kafolatini belgilovchi omillardandir. Xorijiy maslahatchining ma'ruzasi barcha ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otibgina qolmay, balki ularning sohaviy bilimlarining oshishi hamda mustahkamlanishiga ham ijobjiy ta'sir o'tkazganini berilgan savol - javoblar orqali ham sezmaslik mumkin emas. Seminardan shu narsa ayon bo'ldiki, bunday yo'sindagi va mavzudagi tadbirlarni muntazam o'tkazib turilishi foydadan xoli emas. Ishtirokchilarning mammunligi, qoniqishi ularning ochiq chehrasi va yuz-ko'zidan ham ma'lum edi. Zamonaviy bilim va texnologiya har doim yangilanib, o'zgarib borishini inkor etish qiyin. Demak, davr bilan hamqadam va hamnafas bo'lish zamon taqozosi va talabidir.



**TIQXMMI Matbuot xizmati**